

**O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaviy jinoyatlar uchun
javobgarlikning huquqiy tahlili**

Safarova Madina Dilshod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

msdilshodovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari amaldagi qonunchiligimiz asosida tahlil qilingan. Ish “korrupsiya” va “korrupsiyaviy jinoyatlar” tushunchalarini o‘rganish, bu turdagi jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tahlil qilish orqali javobgarlikning ayrim masalalarini ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekti, subyektiv tomoni, mansabdor shaxs, davlat xizmatchisi.

Korrupsiya tushunchasi bilan korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi turlicha bo‘lib, korrupsiya atamasini jinoyat tarkibi sifatida tilga olish noto‘g‘ri. Chunki, “korrupsiya” tushunchasi jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi boshqa ko‘pgina ijtimoiy xodisalar kabi ijtimoiy xodisadir. Jinoyat qonunchiligimizda ham korrupsiya uchun emas, balki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan.

Ijtimoiy munosabatlarni korrupsiyaviy jinoyatlardan muhofaza qilishda milliy qonunchiligimizda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi umumiy va maxsus qismlari bilan tartibga solingan. Ushbu normalarni shartli ravishda besh guruhga ajratishimiz mumkin:

Jinoyatchilik va korrupsiyaviy jinoyatlarni jazolashning umumiy shartlarini tartibga soluvchi normalar majmuyi (Jinoyat kodeksi umumiy qismining normalari);

Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi umumiy normalar (Jinoyat kodeksi umumiy qismining normalari);

Jinoyat kodeksining maxsus qismining mansab vakolatlarini suiiste'mol qilib, o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilganlik uchun javobgarlikni o'rnatuvchi normalar;

Mansabdor shaxsning jinoiy qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar;

Jinoyat kodeksi maxsus qismining mansabdor shaxsning jinoyat sodir etishi tasniflovchi belgi hisoblangan mansabga oid bo'lmagan jinoyatlarning alohida turlari uchun javobgarlik o'rnatuvchi normalari.¹

Ushbu jinoyatlarni jinoiy –huquqiy jihatdan tahlil qilib, ularning obyeki, obyektiv tomoni, subyektiv tomoni va subyekti masalalarini tahlil qilish korrupsiyaviy jinoyatlarni o'rganishning asosiy qismidir. Korrupsiyaviy jinoyatlarning belgilari va ularning tahlili o'z-o'zidan uning ijtimoiy xavfliligi, aybliligi va jinoyat qonunida taqiqlanganlik darajasini ko'rsatish mumkin. Yu.I.Lyapunovning fikricha, jinoyat tarkibi va uning zaruriy belgilari sifatida qilmishning ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofligi va qonunda taqiqlanganligi jinoiy javobgarlikning asosi hisoblanadi.² A.X.Sattorov esa, davlat yoki jamoat apparati faoliyatini tashkil etuvchi va jamiyat talablariga mos keluvchi bir toifali ijtimoiy munosabatlar guruhi deya ta'rif beradi.³

Korrupsiyaviy jinoyatlarning obyeki davlat hokimiyati va boshqaruvi bilan bog'liq davlat apparatining normal faoliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari hisoblanadi. Bu korrupsiyaviy jinoyatlarning umumiy obyeki hisoblanadi. Shu bilan birga Jinoyat kodeksining 205-206, 209-214-moddalarining bevosita obyektidir. Jinoyat kodeksining 192⁹-192¹¹-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlarning bevosita obyeki xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

¹ R.A.Zufarov, B.J.Axrоров., U.M.Mirzayev. "Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya", Toshkent-2011. 108-b.

³ Ляпунов Ю.И. Общественная опасность как категория преступления. – М.: Знание, 1982. – С. 112

⁴ Саттаров А.Х. Борьба с должностными злоупотреблениями в подсобных сельских хозяйствах предприятий и организации. Автореф. ... канд. юрид. наук. – Т., 1990. – С.10.

Firibgarlik jinoyatini xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilishining bevosita obyekti o'zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat tarkibiy elementlaridan biri jinoyatning obyektiv tomonidir. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonini to'g'ri aniqlash qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, o'xshash jinoyatlarni bir-biridan farqlash imkonini beradi. Korrupsiyaviy jinoyatlar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, korrupsiyaviy jinoyatlarning obyektiv tomoni hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish hisoblanadi. Chunki, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoiy xulq-atvorning , avvalambor, mansabdor shaxs tomonidan o'z mansab vakolatlaridan xizmat manfaatlariga zid ravishda foydalanishida ifodalanadigan eng umumiy shaklidir. ⁴

Mazkur jinoyatlar bo'yicha subyektiv tomonning belgilarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Qonunga muvofiq, korrupsiyaviy jinoyatni sodir etishga to'g'ri qasdning mavjudligini, shuningdek aybdor mazkur jinoyatni g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab sodir etilganligini isbotlashning zarurligi sud-tergov amaliyoti uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Ammo, bu va boshqa qiyinchiliklar korrupsiyaga qarshi kurashning to'g'ri qasd, egri qasd yoki ehtiyotsizlik bilan aralashtirib yuborilgan yengilashtirilgan jinoyat-huquqiy modeli uchun asos olmaydi.

Bu turdagi jinoyatlar asosan shaxsan yoki vositachilar orqali mulkiy naf ko'rish va mulkiy xususiyatga ega imtiyozlarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab sodir etiladi. Barcha korrupsiyaviy jinoyatlar subyektiv tomondan to'g'ri qasd va g'arazgo'ylik maqsadlarida sodir etiladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarni tahlil qilganimizda subyekt masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur jinoyatlarning subyekti jinoyat qonunida belgilangan yoshga to'lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasida aqli raso shaxslargina jinoiy javobgar deb topiladi, zotan, aqli

⁴ R.A.Zufarov, B.J.Axrоров., U.M.Mirzayev. "Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya", Toshkent-2011. 108-b.

rasolik – ayb va javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi.⁵

Jinoyat subyektining yana bir mezonini bu amaldagi jinoyat qonuniga asosan faqat jismoniy shaxslar jinoyat subyektini bo'la olishadi. Ammo, BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni belgilovchi 26-moddada mavjud bo'lib, O'zbekiston konvensiyasining ushbu moddasiga qo'shilmagan.

Mansabdor shaxs tushunchasiga umumiy ta'rif beradigan bo'lsak, davlat organlarida, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida, davlat va munitsipal muassasalarida hokimiyat vakili vazifalarini doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha amalga oshiruvchi yoxud tashkiliy-boshqaruvchanlik, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajaruvchi shaxs.⁶

Jinoyat kodeksiga ko'ra, mansabdor shaxs - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Davlat xizmatchisi davlat xizmati lavozimi majburiyatlarini bajaradigan shaxs hisoblanadi. Mansabdor shaxs yoki hokimiyat vakili davlat xizmatchisi bo'lishi mumkin. Qonunchilikda “davlat xizmatchisi” atamasiga ta'rif berilmagan bo'lsada Jinoyat kodeksida “xizmatchi” atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Xizmatchi davlat organida, tijorat, notijorat tashkilotida mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega bo'lmagan shaxs hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, mansabdor shaxslarning aksariyati davlat

⁵ Q.R.Abdurasulova. “Jinoyatning maxsus subyektini”. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDYU, 2005. – B. 6.

⁶ <https://www.wikipedia.org>
www.tadqiqotlar.uz

korxonalaridagi yuqori lavozimlarda xizmat qiluvchilarni tashkil qiladi. Ular jinoyatga qo'l urganda aynan mansab lavozimlaridan foydalanganligini anglab yetganligi tergov davomida aniqlangan.⁷

Korrupsiyaviy jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tavsifini ko'rib chiqib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Korrupsiyaviy jinoyatlar davlat hokimiyati va boshqaruviga, shuningdek davlat apparatining normal faoliyat yuritishga, fuqarolarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazadi;

Hokimiyat va mansab vakolatini suiiste'mol qilish, mansabdor shaxs o'z manfaatlari yo'lida mansab vakolatlarida noqonuniy ravishda foydalanishi deyarli barcha korrupsiyaviy jinoyatlarning obyektiv tomonini asosini tashkil qiladi;

Korrupsiyaviy jinoyatlar har doim to'g'ri qasd yoki g'arazgo'ylik niyatlarida sodir etiladi;

Korrupsiyaga oid jinoyatlarda subyekt tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki subyekt nafaqat jinoyat qonunchiligi bo'yicha ma'lum bir yoshga to'lgan, aqli raso shaxs, balki mansabdor shaxs ham bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
2. R.A.Zufarov, B.J.Axrorov., U.M.Mirzayev. "Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya", Toshkent-2011. 108-b;
3. Ляпунов Ю.И. Общественная опасность как категория преступления. – М.: Знание, 1982. – С. 112;
4. Саттаров А.Х. Борьба с должностными злоупотреблениями в подсобных сельских хозяйствах предприятий и организации. Автореф. ... канд. юрид. наук. – Т., 1990. – С.10;
5. Q.R.Abdurasulova. "Jinoyatning maxsus subyekti". O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDYU, 2005. – B. 6.

⁷ Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni huquqiy baholash: O'quv-amaliy qo'llanma / I. A. Sottiev, S. I. Hamraev: – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008, 34-b.